



O‘ZBEKISTONDA TURIZM INDUSTRIYASINI YANADA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Ominaxon ABABAXRIYEVA,

Turizm (ziyorat turizmi) 3-kurs talabasi,

Kamoliddin JAHONGIROV, stajor o‘qituvchi,

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

e-mail: kamoliddin6564@gmail.com

Tel. mobil: (97) 765-65-64

Annotatsiya: *Maqolada industriya tushunchasiga berilgan ta’riflar keltirilgan. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida turizm industriyasining tutgan roli yoritilgan. Shuningdek, turizm industriyasidan keladigan daromadlarning statistik ma’lumotlari bayon qilingan. O‘zbekistonning turizm salohiyati va imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan hamda mamlakatimizda turizm industriyasini rivojlantirish imkoniyatlari SWOT orqali tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Turizm industriyasi, sektor, konferensiya, turizm operatori, turizm agentligi, ekskursiya, gid-tarjimon, pandemiya, karantin, eksport, diversifikatsiya, konsepsiya, strategiya, turistik infratuzilma, marketing, investitsiya, multiplikativ, pirovard natija.*

Turizm industriyasi butun dunyoda muhim iqtisodiy va ijtimoiy foyda keltiradi hamda iqtisodiy o‘sish va rivojlanishni rag‘batlantirish, hayotni ta’minlash orqali qashshoqlikni kamaytirish, madaniyatlararo almashinuv orqali bag‘rikenglik hamda tinchlikni rivojlantirish orqali odamlar hayotini yaxshi tomonga o‘zgartirish qobiliyatiga ega. Sektor har yili xalqaro miqyosda sayohat qilayotganlar sonining kuchli va doimiy o‘sib borishini hamda so‘nggi olti, o‘n yillikdagi iqtisodiy ta’sirini namoyish etmoqda. Kelajakdagi bashoratlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu sektor dunyoda yaxshilik uchun kuch sifatida harakat qilish imkoniyatini va mas’uliyatini kuchaytirib,



hajmi va ahamiyati o‘shishda davom etadi.

Bugungi kunda turizm industriyasi jadal ravishda rivojlanar ekan uning ta’rifi va tasnifiga oid ko‘plab adabiyot hamda normativ-hujjatlarda turlicha ifodalanishini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, ushbu ta’riflarni o‘rganish va tadqiq etish natijasida ularning mazmun-mohiyati aynan bir ma’nodagi tushunchaga olib boradi. Turizm industriyasi tushunchasini yoritishdan avval “industriya” atamasini aniqlashtirish maqsadga muvofiq sanaladi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “industriya” atamasiga quyidagicha ta’rif berilgan. Industriya (lot. industria – mehnatsevarlik, tirishqoqlik) – sanoat, xalq xo‘jaligining jamiyat iqtisodiy rivojlanishiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadigan muhim tarmog‘i¹.

Hozirgi kunga qadar “turizm industriyasi” tushunchasiga ko‘plab ta’rif va sharhlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ulardan dastlabkisi va nisbatan aniq ta’riflardan biri 1971-yilda BMTning savdo va rivojlanish bo‘yicha Konferensiyasida berilgan. Unga ko‘ra turizm industriyasi: “... sayohat qiluvchi shaxslar uchun tovar va xizmatlarni yaratishga qaratilgan iqtisodiy faoliyatning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish shakllari majmui”², – deb ta’rif berilgan.

Boshqa bir manbada turizm industriyasiga: “mehmonxonalar va joylashtirish vositalari, transport vositalari, umumiy ovqatlanish obyektlari va vositalar, bilim orttirish, davolanish, sog‘lomlashtirish, sportga doir, diniy-marosimchilik, ishbilarmonlikka va boshqa maqsadlarga molik vositalar, turizm operatorlari hamda turizm agentligini amalga oshiruvchi, shuningdek, turistik ekskursiya va gid-tarjimonlik xizmatlarini taklif qiluvchi tashkilotlar majmuidir³”, - deb sharx beriladi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, o‘tgan 2022-yil mobaynida dunyo miqyosida xalqaro sayyohlar soni 969 million nafarni tashkil etgan. Yillik sezilarli o‘shishga

¹ O‘zbek tilining izohli tug‘ati. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. B. 209.

² Жукова М.А. Менеджмент в туристском бизнесе: учебное пособие. – 2-е изд., стер. – М.: КНОРУС, 2006. С. 15.

³ Boltaboyev M.R., Tuxliev I.S. Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik. – T.: “Barkamol fayz media”, 2018. – 400 b.



qaramay, xalqaro turizm kelishi pandemiyadan oldingi darajadan past bo‘lib qoldi va bu pandemiyaga qadar bo‘lgan ko‘rsatkichning salkam 70 foizini tashkil qilganini ko‘rish mumkin.⁴ 2023-yilda ham turizm pandemiyadan oldingi darajaga qaytish yo‘lida davom etmoqda, jumladan, 2023-yilning birinchi choragida 2022-yilning shu davriga nisbatan ikki baravar ko‘p sayohat amalga oshirilgan.⁵

O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2016-2019-yillarda mamlakatimizda turizmni rivojlantirish ko‘rsatkichlari barqaror ravishda ortib bordi. 2016-2019-yillarda mamlakatimizga kelgan sayyohlar soni 3,2 baravarga oshdi va 6,7 million kishini tashkil etdi. 2020-yilda vaziyatni yaxshilash bo‘yicha ko‘rilgan moliyaviy, tashkiliy va iqtisodiy chora-tadbirlarga qaramay, mamlakatga 1,3 million turist tashrif buyurdi, ya’ni, tashriflar soni 5 barobar kamaydi. 2021-yil turizmning tiklanish davri bo‘ldi, yil davomida O‘zbekistonga 1,9 million xorijiy sayyoh tashrif buyurdi. Mamlakatga kelgan sayyohlar soni o‘tgan yilga nisbatan 2,7 barobar oshib, 5,8 million kishini tashkil etganiga qaramay, 2022-yilda 2019-yildagi ko‘rsatkichga erishilmadi⁶. 2020-yilda tashqi chegaralarning yopilishi chet ellik sayyohlar kelishini butunlay to‘xtatib qo‘ydi. Bundan tashqari, mamlakat bo‘ylab karantin cheklolari joriy etilishi ichki turizmni ham deyarli to‘xtatdi. Natijada, mamlakatimizda bevosita turizm xizmatlarining eksportidan olingan daromadni 2019-yilga nisbatan 4 barobardan ko‘proq qisqarishiga olib keldi.

Yuqoridagi ko‘rsatkichlarga qaramasdan turizm xizmatlari eksporti 2020-yilda 370 million AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilda ushbu ko‘rsatkich 15,1% oshib, 422,1 million AQSh dollariga yetdi⁷. 2023-yilda O‘zbekistonga 6,6 million nafar

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasi 25-sessiyasidagi nutqi. // <https://president.uz/oz/lists/view/6763>

⁵ WTTC. (2020). Economic Impact Reports. World Travel & Tourism Council. // <https://wtcc.org/research/economic-impact>

⁶ O‘zbekistonda turizm: pandemiyadan oldin va keyin. 7-fevral 2023-yil // UzAnalytics: <https://uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/8193/>

⁷ Turizm – iqtisodiyot drayveri // <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/turizm-iqtisodiyot-drayveri>



chet el fuqarolari turistik maqsadlarda tashrif buyurgan bo'lib, ularga ko'rsatilgan turizm xizmatlari hajmi 2,1 milliard AQSh dollarini tashkil etdi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda davlat tomonidan turizmni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilib, turizmni milliy iqtisodiyotning strategik sohasiga aylantirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiyalash va sifatini oshirish hamda turistik infratuzilmani, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish va samarali reklama-marketing ishlarini olib borish evaziga takomillashtirish orqali erishish ko'zda tutilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, 2023-yilda qabul qilingan respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha "O'zbekiston – 2030" strategiyasida xorijiy turistlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo'yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirish, xususiy investitsiyalarni jalb qilish hisobiga 30 ta yirik turizm klasterlarini tashkil etish, mehmon o'rinlari sonini kamida 2 barobarga oshirish, tog'li hududlarda 25 ta dor yo'llari qurish, turizm mahallalari sonini 175 taga yetkazish, turizm xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga yetkazish maqsadlari qo'yilgan⁸. Bu bilan mamlakatda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda turizmning multiplikativ samarasidan foydalanish va pirovard natijada aholining turmush farovonligining oshishiga erishiladi.

Shuningdek, yurtimizda turizmni rivojlantirishga juda ko'plab imkoniyatlar mavjud. Jumladan Respublikada 9608 dan ziyod madaniyat obyektlari mavjud. Shundan 7300 dan ziyodi qadimiy arxitektura va arxeologik obyektlar hisoblanib, 200 tasi UNESCO ning jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. Ularning asosiy qismi Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz, Termiz, Qo'qon va Toshkent shaharlarida joylashgan⁹.

O'zbekistonning qadimiy shaharlari yoshi 2750 yildan ziyod. Jumladan,

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.

⁹ O'zbekistonning turistik salohiyati URL: <https://invest.gov.uz>



Samarqand – dunyoning eng qadimiy shaharlaridan biri bo‘lgan Rimning tengdoshi hisoblanadi.

Bugungi kunda jahon turizm bozori hajmi qariyb 9 trillion dollarni tashkil etmoqda. Tahlillarga ko‘ra, turistlar havo transportida uchish vaqti 5 soatgacha bo‘lgan o‘lkalarga eng ko‘p sayohat qiladi. Mamlakatimiz atrofida bunday masofada 60 ga yaqin davlat, 3 milliard aholi bor. Yiliga ularning qariyb 360 millioni xorijga sayohat qiladi¹⁰. Bu ulkan turizm bozori degani.

1-jadval

O‘zbekiston turizm industriyasining SWOT tahlili¹¹

Kuchli tomonlar	Kuchsiz tomonlar
<ul style="list-style-type: none"> – turizm guruhlarini qabul qilish uchun turoperatorlik faoliyati yaxshi yo‘lga qo‘yilgan; – markazda joylashgan va Rossiya, Xitoy, Hindiston kabi boy mamlakatlarga yaqinligi; – mehmondo‘st xalqiga ega; – turizm resurslarga ega; – tarixiy-madaniy turizm uchun resurslar yetarli darajada; – ziyorat turizmini rivojlantirish uchun resurslarning mavjudligi; – iqlimning mo‘tadilligi. 	<ul style="list-style-type: none"> – ichki transport infratuzilmasi va yo‘l xizmati (yo‘llar, reyslar, sanitariya) yomon ahvolda; – bir xildagi turizm mahsuloti va tang holatdagi diversifikasiya; – chegaralangan viza tartibi; – yakka tartibdagi turistlar uchun mos turpaketlar kamligi; – turizmning mavsumiyligi; – normativ-huquqiy hujjatlarning yaratilishi yetarli emasligi. – infratuzulmani yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi; – soha bo‘yicha mutaxassislarining yetishmasligi.

¹⁰ Turizm va sportni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi, 2020-yil 28-yanvar, <https://uza.uz>

¹¹ Muallif tomonidan ishlab chiqildi



Imkoniyatlar	Xavflar
<ul style="list-style-type: none"> – jahonda chiqish turizmi tendensiyasi o‘smoqda; – shiddat bilan rivojlanayotgan Xitoy turizm bozori, hamda Rus bozori (BRIK) va Yaqin Sharq davlatlari; – O‘zbekiston mintaqasidan o‘tgan “Buyuk Ipak yo‘li”ning ahamiyati oshib, uning qayta tiklanishi. – turizmga davlat darajasidagi e‘tibor. 	<ul style="list-style-type: none"> – xorijiy turoperatorlarning ustuvorligi bahoni tushiradi (demping); – siyosiy va xavfsizlik borasidagi tavakkalchilik; – Afg‘onistondagi vaziyat xavfsizlik sharoitlarini yomonlashtirishi va mintaqaviy muammolar sababli qo‘shnilar bilan keskinlikni oshishi.

Yuqorida keltirilgan Jahon Banki ma’lumotlari asosidagi SWOT tahlil O‘zbekiston turizm industriyasining holatini to‘liq ochib beradi, ya’ni mamlakatimiz turizm sohasining kuchli va zaif jihatlari, imkoniyatlar darajasini bilish, shuningdek mazkur tarmoqni rivojlantirishda qanday to‘siqlar mavjudligini to‘liq anglash orqali uni yuksaltirishga erishish mumkin.

SWOT tahlilda ko‘rsatilganidek, mamlakatimiz turizm sohasini rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri bu yangi turizm yo‘nalishlarini joriy etishdir. O‘zbekiston katta turizm salohiyatiga ega mamlakat hisoblanadi. Demak, yurtimizda yangi turizm turlarini joriy qilish muammo tug‘dirmaydi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, turizmning jahon iqtisodiyotidagi ahamiyati yildan yilga ortib, asosiy makroiqtisodiy soha sifatida rivojlanib bormoqda. Jumladan, ushbu soha butun dunyodagi aksar davlatlarning muhim iqtisodiy foyda keltiruvchi manbai bo‘lgani kabi O‘zbekiston iqtisodiyotining rivoji uchun ham muhim soha bo‘lib xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda esa turizm sohasini rivojlantirish uchun salohiyati beqiyos. Undan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish, turizm industriyasini qaror toptirish mamlakatimizning iqtisodiy o‘rishini ta’minlaydigan asosiy sohalardan



biriga aylantirish imkoniyati mavjud. Undan faqat shu maqsad uchun oqilona foydalanishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYAOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.
2. O‘zbek tilining izohli tug‘ati. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. B. 209.
3. Жукова М.А. Менеджмент в туристском бизнесе: учебное пособие. – 2-е изд., стер. – М.: КНОРУС, 2006. С. 15.
4. Boltaboyev M.R., Tuxliev I.S. Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik. – T.: “Barkamol fayz media”, 2018. – 400 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasi 25-sessiyasidagi nutqi. // <https://president.uz/oz/lists/view/6763>
6. WTTC. (2020). Economic Impact Reports. World Travel & Tourism Council. // <https://wttc.org/research/economic-impact>
7. O‘zbekistonda turizm: pandemiyadan oldin va keyin. 7-fevral 2023-yil // UzAnalytics: <https://uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/8193/>
8. Turizm – iqtisodiyot drayveri // <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/turizm-iqtisodiyot-drayveri>
9. O‘zbekistonning turistik salohiyati URL: <https://invest.gov.uz>
10. Turizm va sportni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi, 2020-yil 28-yanvar, <https://uza.uz>